Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarining (OTM) moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Nodavlat OTMlarni tashkil etishda yoki faoliyatini yuritish davomida dastlabki ustav fondini kamida 2 million AQSH dollari ekvivalentida shakllantirish hamda uni talabalar soniga mutanosib ravishda oshirib borish mexanizmi yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, mazkur mexanizm nodavlat OTMlarning operatsion faoliyati uzluksizligini ta'minlash, moliyaviy risklarni kamaytirish va infratuzilmaga investitsiyalarni rag'batlantirish imkonini beradi. Iqtisodiy hisob-kitoblar natijasida ustav fondi depozit sifatida joylashtirilganda daromad keltirishi, infratuzilmani shakllantirish orqali esa iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligi asoslangan.

Kalit so'zlar: nodavlat oliy ta'lim muassasasi, moliyaviy barqarorlik, ustav fondi, ustav kapitali, ta'lim infratuzilmasi, operatsion faoliyat, moliyaviy risklar, investitsiya, iqtisodiy samaradorlik, endowment (endowment).

Abstract. The article examines the theoretical and practical aspects of ensuring the financial sustainability of higher education institutions (HEIs). It highlights the mechanism for forming the initial charter fund of non-state HEIs in an amount equivalent to at least 2 million US dollars during their establishment or operation, as well as increasing it proportionally to the number of students. The research results show that this mechanism makes it possible to ensure the continuity of operational activities of non-state HEIs, reduce financial risks, and stimulate investments in infrastructure. Based on economic calculations, it is substantiated that the charter fund can generate income when placed as a deposit, while economic efficiency can also be achieved through the development of infrastructure.

Keywords: non-state higher education institution, financial sustainability, charter fund, charter capital, educational infrastructure, operational activity, financial risks, investment, economic efficiency, endowment.

Аннотация. В статье исследованы теоретические и практические аспекты обеспечения финансовой устойчивости высших образовательных учреждений (ВОУ). Раскрыт механизм формирования первоначального уставного фонда негосударственных ВОУ в размере не менее эквивалента 2 миллионов долларов США при их создании или в процессе осуществления деятельности, а также его увеличения пропорционально численности студентов. Результаты исследования показывают, что данный механизм позволяет обеспечить непрерывность операционной деятельности негосударственных ВОУ, снизить финансовые риски и стимулировать инвестиции в инфраструктуру. На основе экономических расчётов обосновано, что уставный фонд при размещении в виде депозита может приносить доход, а формирование инфраструктуры позволяет достичь экономической эффективности.

Ключевые слова: негосударственное высшее образовательное учреждение, финансовая устойчивость, уставный фонд, уставный капитал, образовательная инфраструктура, операционная деятельность, финансовые риски, инвестиции, экономическая эффективность, эндаумент.

KIRISH

Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimi nafaqat davlat xizmatlari sohasi, balki keng qamrovli iqtisodiy-ijtimoiy institut sifatida shakllanib bormoqda. Jahon amaliyotida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy modellari turlicha bo'lib, ularni moliyalashtirishda davlat budjeti mablag'lari bilan bir qatorda nodavlat sektor tomonidan jalb etilayotgan xususiy investitsiyalar ham muhim o'rin tutadi. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ga a'zo mamlakatlarda oliy ta'lim xarajatlarining o'rtacha 30 foizdan ortiq qismi xususiy manbalar hisobidan qoplanadi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish hamda nodavlat oliy ta'lim muassasalari ulushini kengaytirish vazifalari belgilangan [2]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mazkur sohada boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda huquqiy-

institutsional asoslarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda [4].

Amaliyotda nafaqat nodavlat, balki davlat OTMlarning moliyaviy barqarorligi muammosi ham dolzarb bo'lib qolmoqda. So'nggi 10 yillikda Respublikamizda nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha huquqiy asoslar takomillashtirildi va natijada hozirgi kunga kelib 100 dan ortiq nodavlat oliy ta'lim muassasalari mavjud. Ayrim nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatining dastlabki bosqichidayoq moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda. Xususan, operatsion xarajatlarni qoplashdagi qiyinchiliklar ta'lim jarayoni sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, talabalar manfaatlarining yetarli darajada himoya qilinmasligiga olib kelishi hamda pirovardida muassasa faoliyatining tugatilish xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, nodavlat OTMlarning muvaffaqiyatli faoliyati uchun dastlabki yetarli moliyaviy poydevorni shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, nodavlat OTMlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi mexanizmlarni ishlab chiqish ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Aynan shu masala mazkur tadqiqot obyektini belgilaydi.

Ushbu maqolada ustav fondi — ustav kapitali tushunchasi bilan bir qatorda “endaument” atamasi ham ishlatilgan. Ikkala mexanizm ham moliyaviy barqarorlikni ta'minlansa-da, ular o'rtasida asosiy farqlar mavjud:

Ustav fondi — nodavlat OTM tashkil etilayotganda asoschilar tomonidan kiritiladigan majburiy minimal mulk. Ushbu mablag'lar ta'lim jarayonini tashkil etish, ya'ni bino, uskuna va operatsion xarajatlarni qoplash uchun ishlatilishi mumkin. Mazkur tadqiqotda nodavlat OTMlar uchun ustav fondining minimal miqdorini qonunchilikda aniq belgilash zarurligi ilmiy taklif sifatida asoslanadi.

Endaument (endowment, inglizcha) jamg'armasi — maqsadli investitsion fond bo'lib, unga kiritilgan asl kapital saqlanadi, faqat undan olingan daromad, masalan, foiz va dividend ko'rinishidagi investitsion daromadlar, universitet budgetiga yo'naltiriladi. Endaument majburiy emas, balki ko'ngilli ravishda shakllantiriladi.

Ushbu maqoladagi taklif ustav fondining majburiy minimal chegarasini belgilashga qaratilgan bo'lib, endaument jamg'armasi to'liq huquqli subyekt sifatida keyingi tadqiqotlar objekti hisoblanadi. Taklif etilayotgan ustav fondi endaumentni almashtirmaydi, balki uni to'ldiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi muammolari jahon ilm-fanida keng o'rganilgan. Ushbu yo'nalishda fundamental hissa qo'shgan tadqiqotchilar orasida B. Jonstoun (D.B. Johnstone), J. Salmi (J. Salmi), F. Altbax (Ph. Altbach), H. de Vit (H. de Wit) kabi olimlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Jumladan, B. Jonstoun oliy ta'limni moliyalashtirishning xarajatlarni taqsimlash konsepsiyasini (cost-sharing) ishlab chiqqan va unda davlat, oila, talaba va xususiy sektor o'rtasida moliyaviy yukni oqilona taqsimlash zarurligini asoslagan [5, 45-b.].

J. Salmi va A. Xazelkorn “dunyo miqyosidagi universitetlar” (world-class universities) konsepsiyasini rivojlantirib, yetakchi universitetlarning muvaffaqiyati uchun uch asosiy omil — iste'dodlarning konsentratsiyasi, yetarli moliyaviy resurslar va moslashuvchan boshqaruv tizimi zarurligini ta'kidlaganlar [6, 28-b.]. Bunda xususiy kapital va endaument jamg'armalarining roli alohida urg'u beriladi.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilaridan Ye.I. Kuzminov, I.V. Abankina, T.V. Abankina kabi olimlarning ishlarida oliy ta'limni moliyalashtirishning turli modellari tahlil qilingan. Xususan, I.V. Abankina oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda diversifikatsiyalangan daromad manbalarining ahamiyatini asoslab bergan [8, 67-b.].

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida oliy ta'lim tizimining moliyaviy jihatlari, ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanishi hamda nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish masalalari muayyan darajada o'rganilgan. Biroq nodavlat OTMlarni tashkil etish bosqichida moliyaviy barqarorlikning dastlabki asoslarini shakllantirish, xususan, ustav fondining majburiy minimal miqdorini belgilash va uni talabalar soniga mutanosib ravishda oshirib borish mexanizmi yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda umumilmiy va maxsus ilmiy usullar majmui qo'llanilgan. Nazariy jihatdan ilmiy abstraksiya, dialektik yondashuv, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, tarixiy-mantiqiy usullardan foydalanilgan. Empirik tadqiqot doirasida qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, iqtisodiy-matematik modellash, ekspertlar so'rovi va ssenariy tahlili usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining normativ-huquqiy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlari, OECD, UNESCO va Jahon banki statistik bazalari, shuningdek, ilmiy monografiya va maqolalar tashkil etadi.

Iqtisodiy hisob-kitoblar uchun diskontlangan pul oqimlari (DCF), ta'lim investitsiyalari rentabelligi (ROI) hamda sezuvchanlik tahlili (sensitivity analysis) usullari qo'llanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

1. Nodavlat OTMlarning moliyaviy barqarorligi: tushunchasi va mezonlari

Moliyaviy barqarorlik kategoriyasi ta'lim muassasalari misolida o'ziga xos mazmunga ega. An'anaviy iqtisodiy tushunchada moliyaviy barqarorlik korxonaning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Oliy ta'lim muassasalari nuqtai nazaridan esa ushbu kategoriya yanada kengroq ma'noga ega bo'lib, muassasaning uzoq muddatli ta'lim jarayonini uzluksiz amalga oshirishni, ilmiy-pedagogik kadrlarni saqlab qolishni va sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlashni ham o'z ichiga oladi.

Jahon tajribasida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini baholashda quyidagi asosiy mezonlar qo'llaniladi:

- likvidlik koeffitsiyenti — joriy majburiyatlarni tezkor qoplash qobiliyatini aks ettiradi;
- avtonomlik koeffitsiyenti — o'z kapitalining umumiy kapital tarkibidagi ulushini ko'rsatadi;
- daromadlarni diversifikatsiyalash indeksi — daromad manbalarining turli-tumanligi darajasini belgilaydi;
- operatsion zarar koeffitsiyenti — asosiy faoliyatdan olinadigan sof natijani xarakterlaydi;
- endaument jamg'armasi nisbati — jamg'arma miqdorining yillik xarajatlarga nisbatini ko'rsatadi.

Ayni vaqtda nodavlat OTMlar uchun muhim xususiyatlardan biri shuki, ularning daromadlarining asosiy qismi, ayrim holatlarda 80–95 foizi, talabalarining o'qish kontrakt pullari hisobiga shakllanadi. Bu esa daromadlarni yuqori darajadagi tebranishga, demografik va makroiqtisodiy omillarga bog'liqlikka duchor qiladi.

2. O'zbekistonda nodavlat OTMlar sektorining hozirgi holati va muammolari

So'nggi yillarda O'zbekistonda nodavlat OTMlar tarmog'i jadal rivojlanmoqda. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, agar 2017-yilda mamlakatda atigi bir necha nodavlat OTM faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 70 dan ortib ketdi. Ushbu muassasalar faoliyati turli yo'nalishlarda — iqtisodiyot, tibbiyot, axborot texnologiyalari, injiniring va san'at sohalarida amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, amaliy tahlillar nodavlat oliy ta'lim muassasalari sektorida moliyaviy barqarorlik, tashkiliy boshqaruv hamda ta'lim sifati bilan bog'liq qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Jumladan:

- **moliyaviy poydevorning yetarli darajada shakllanmaganligi** — ko'pgina muassasalar o'z faoliyatini asosan jalb etilgan mablag'lar hisobiga boshlaydi;
- **ijara munosabatlariga yuqori darajada bog'liqlik** — ta'lim binolarining 60 foizdan ortig'i ijaraga olingan bo'lib, bu holat o'quv jarayonining uzluksizligini ta'minlashda muayyan xavflarni yuzaga keltiradi;
- **operatsion xarajatlarning yuqoriligi** — ijara, litsenziyalash, akkreditatsiya hamda malakali kadrlar bilan ta'minlash xarajatlari muassasa daromadlarining salmoqli qismini egallaydi;
- **uzoq muddatli strategik rejalashtirishning yetarli darajada rivojlanmaganligi** — boshqaruv qarorlari ko'pincha qisqa muddatli moliyaviy imkoniyatlar doirasida qabul qilinadi;
- **xalqaro reytinglar talabalariga mos ko'rsatkichlarga erishishdagi qiyinchiliklar** — ayrim muassasalarda infratuzilma, axborot-resurs bazasi, kitob fondi va laboratoriya jihozlari xalqaro standartlar darajasida shakllanmagan.

Yuqorida qayd etilgan muammolar nodavlat oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda ularning faoliyatini tartibga solish bo'yicha yangi institutsional va iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

3. Nodavlat OTMlarning ustav fondi mexanizmi

Tadqiqot natijasi sifatida nodavlat OTMlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ustav fondi (ustav kapitali) mexanizmining alohida rolini belgilovchi konsepsiya ishlab chiqildi. Muallif tomonidan ilgari surilayotgan taklifning mohiyati quyidagilardan iborat:

Birinchiidan, nodavlat OTMni tashkil etish bosqichida uning dastlabki ustav fondi (ustav kapitali) kamida 2 million AQSH dollari ekvivalentidan kam bo'lmagan miqdorda shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu mablag' OTMning ta'lim jarayoni bilan bevosita bog'liq moddiy-texnik bazasi (bino, auditoriyalar, laboratoriyalar, o'quv uskunlari) va dasturiy ta'minotini qamrab olishi kerak.

Ikkinchiidan, talabalar sonining ko'payib borishiga mutanosib ravishda ustav fondi miqdori ham oshirib borilishi zarur. Bu prinsip ta'lim muassasasining kengayib borishi bilan mutanosib ravishda uning moddiy-texnik bazasi ham rivojlanib borishini ta'minlaydi va OTMning o'z talabalarini oldidagi majburiyatlarini bajarish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Uchinchiidan, ustav fondi faqat ta'lim jarayoni bilan bog'liq maqsadlarga yo'naltirilishi va unga nisbatan maxsus nazorat mexanizmi joriy etilishi kerak. Bu muassasaning boshqa maqsadlar uchun mablag'larni sarflab yuborishining oldini oladi.

Taklif etilayotgan ustav fondi mexanizmining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- operatsion faoliyat uzluksizligini ta'minlash — talabalar sonining davriy tebranishlari davrida ham OTMning o'quv jarayonini uzluksiz olib borish imkonini beradi;
- moliyaviy risklarni kamaytirish — makroiqtisodiy zarbalar, demografik o'zgarishlar va boshqa kutilmagan omillar ta'sirini yumshatadi;

ta'lim infratuzilmasiga investitsiyalarni rag'batlantirish — uzoq muddatli investitsion loyihalarni amalga oshirishga sharoit yaratadi;

nodavlat OTMlarning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash — tashqi qarzarlar va ijaraga bog'liqlikni sezilarli darajada kamaytiradi;

davlat oldida barqarorlikni namoyish etish — OTMning jiddiy va uzoq muddatli niyatlarini tasdiqlaydi;

xalqaro reytinglarda mustahkam o'rin egallashga poydevor yaratish — infratuzilma mezonlari bo'yicha xalqaro standartlarga mos kelish imkonini beradi.

Mazkur 2 million AQSH dollari ekvivalentidagi dastlabki ustav fondi miqdori Toshkent shahri sharoitida 1000–1500 talabaga mo'ljallangan kichik hajmdagi nodavlat OTM uchun quyidagi asosiy xarajatlarni qoplashga yetarli:

ta'lim binosi (ijaraga emas, sotib olish yoki uzoq muddatli ijara uchun dastlabki to'lov) — 500–700 ming AQSH dollari;

5–6 ta laboratoriya va 15–20 ta auditoriyani jihozlash — 300–400 ming AQSH dollari;

kutubxona fondi va elektron resurslar — 100–150 ming AQSH dollari;

litsenziya olish, akkreditatsiya, dasturiy ta'minot — 50–100 ming AQSH dollari;

zaxira fondi (operatsion xarajatlar uchun 6–12 oylik bufer) — 400–600 ming AQSH dollari;

infratuzilmaning boshqa xarajatlari — 150–250 ming AQSH dollari.

Hisob-kitoblarga ko'ra, yuqoridagi sarflarning pastki chegarasi taxminan 1,7–1,8 mln AQSH dollarini tashkil etadi, shuning uchun 2 mln dollar xavfsizlik marjasini ham o'z ichiga olgan oqilona minimal miqdor hisoblanadi.

4. Taklif etilayotgan mexanizmning iqtisodiy asoslanishi

Ustav fondi mexanizmining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun muallif tomonidan ikki ssenariyli tahlil amalga oshirildi: a) ustav fondi depozit sifatida joylashtirilgan holda daromad olish ssenariysi; b) ustav fondi infratuzilmani shakllantirishga yo'naltirilgan holda ijara xarajatlaridan tejash ssenariysi.

Ssenariy A. Depozit modeli.

Agar 2 million AQSH dollari miqdoridagi ustav fondi tijorat banklarida AQSH dollarida maqsadli depozitga joylashtirilsa, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, chet el valyutasidagi depozitlar bo'yicha o'rtacha yillik foiz stavkasi 6–7,5 foiz atrofida shakllangan [12]. Shunga ko'ra, bunday mablag' yillik 120 ming — 150 ming AQSH dollari miqdorida daromad keltirishi mumkin. Ushbu daromad OTM tomonidan professor-o'qituvchilar oylik maoshlarini to'lash, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish, talabalarga stipendiya ajratish va boshqa strategik maqsadlarga yo'naltirilishi mumkin.

Shu bilan birga, keltirilgan hisob-kitoblarda AQSH dollarining xarid qobiliyati pasayishi, ya'ni inflyatsiya, hisobga olinmagan. AQSHda o'rtacha yillik inflyatsiya darajasi 2–3 foizni tashkil etadi. 10 yil mobaynida bu haqiqiy daromadni taxminan 20–25 foizga kamaytirishi mumkin. Shuningdek, O'zbekistonda depozit bo'yicha olinadigan daromaddan yuridik shaxslar uchun daromad solig'i, ya'ni 15 foiz, ushlab qolinadi. Demak, 140 000 AQSH dollari yillik nominal daromaddan amalda 119 000 AQSH dollari sof daromad olinadi. Haqiqiy, ya'ni inflyatsiyadan tozalangan, daromad esa taxminan 95 000–100 000 AQSH dollari atrofida bo'ladi.

1-jadval

Depozit ssenariysining 10 yillik iqtisodiy samaradorligi (AQSH dollari)

Yil	Ustav fondi (boshlang'ich)	Yillik daromad (7%)	Kumulyativ daromad	Jami aktiv
1	2 000 000	140 000	140 000	2 140 000
3	2 000 000	140 000	420 000	2 420 000
5	2 000 000	140 000	700 000	2 700 000
7	2 000 000	140 000	980 000	2 980 000
10	2 000 000	140 000	1 400 000	3 400 000

Ssenariy B. Infratuzilma modeli.

Ikkinchi ssenariyda ustav fondi hisobiga OTM o'z binosi, o'quv va tadqiqot laboratoriyalari, kutubxona va boshqa infratuzilma obyektlarini shakllantiradi. Toshkent shahri misolida o'rtacha kattalikdagi, ya'ni 3000–4000 talabaga mo'ljallangan oliy ta'lim muassasasi uchun ijara xarajatlari yiliga 800 ming — 1,2 million AQSH dollarini tashkil etishi kuzatilmoqda. Shunga ko'ra, o'z binosi hisobiga ijaradan voz kechish orqali 10 yil mobaynida taxminan 8–12 million AQSH dollarigacha tejashga erishish mumkin. Qo'shimcha ravishda infratuzilma obyektlarining qiymati ham o'sib borishi, ya'ni qurilish bozoridagi narxlarning ko'tarilishi natijasida, OTM balansini mustahkamlaydi.



2-jadval

Ikki ssenariy bo'yicha 10 yillik kumulyativ iqtisodiy samaradorlik taqqoslanishi (AQSH dollari)

Ko'rsatkich	Ssenariy A (Depozit)	Ssenariy B (Infratuzilma)
Boshlang'ich kapital	2 000 000	2 000 000
Yillik o'rtacha daromad / tejam	120 000 – 150 000	800 000 – 1 200 000
10 yillik kumulyativ samara	1 200 000 – 1 500 000	8 000 000 – 11 000 000
Qo'shimcha afzalliklar	Yuqori likvidlik, moddiy-texnik baza o'sishi yo'q	Mulk qiymatining o'sishi, imidj, reyting uchun asos
Xatarlar	Valyutaning qadrsizlanishi, inflyatsiya	Kapital tiklanish muddatining uzoqligi

Ikki ssenariyning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, uzoq muddatli istiqbolda infratuzilma modelini tanlash iqtisodiy jihatdan ancha samarali hisoblanadi. Keltirilgan raqamlar soliq to'lovlaridan oldingi (pre-tax) nominal ko'rsatkichlardir. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga ko'ra, yuridik shaxslarning depozit bo'yicha foiz daromadlaridan daromad solig'i 15 foiz stavkada ushlab qolinadi [13]. Ssenariy A (depozit) bo'yicha 10 yillik kumulyativ samara 1,4 mln dollardan soliqlardan keyin 1,19 mln dollarga tushadi. Ssenariy B (infratuzilma) bo'yicha ijara xarajatlarini tejash mulk solig'ini keltirib chiqaradi, ya'ni mulk qiymatining 0,5–1,5 foizi atrofida. Ammo bu tejamga nisbatan ancha kichik. Shuning uchun infratuzilma modelining ustuvorligi soliqlar hisobga olinganda ham saqlanib qoladi.

Xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil

Ilgari surilayotgan taklifning asoslanganligini yanada chuqurroq ko'rsatish maqsadida xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganildi. Jahon amaliyotida nodavlat OTMlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi turli mexanizmlar qo'llaniladi.

AQSHda nodavlat universitetlar uchun endowment jamg'armasi (endowment fund) mexanizmi keng tarqalgan. Jumladan, Garvard universitetining endowment jamg'armasi 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra 50 milliard dollardan oshgan bo'lib, uning investitsion daromadlari universitet yillik budjetining uchdan bir qismini qoplaydi. Yel, Prinston, Stenford kabi universitetlar ham shunga o'xshash modeldan foydalanadi.

Malayziyada "Education Hub" konsepsiyasi doirasida nodavlat OTMlarni tashkil etishda dastlabki kapital miqdoriga nisbatan minimal talablar belgilangan. Kembrij universitetining filiali (Heriot-Watt University Malaysia) va Nottingem universitetining filiali ham o'z faoliyatini yetarli moliyaviy poydevor bilan boshlagan.

Turkiyada "Yuqori ta'lim kengashi" (Yükseköğretim Kurulu, YÖK) tomonidan nodavlat universitetlarni tashkil etish uchun asoschilar tomonidan kafolatlangan kapital summasiga nisbatan qat'iy talablar belgilangan. Jumladan, yangi nodavlat OTMni tashkil etish uchun asoschilar kamida 100 million Turk lirasi miqdoridagi, taxminan 3–4 million AQSH dollari ekvivalenti, mablag'ni tasdiqlashlari talab etiladi.

Rossiya Federatsiyasida 2012-yildan buyon nodavlat OTMlarga nisbatan moddiy-texnik bazani belgilash majburiyati joriy etilgan. Ushbu talab ta'lim muassasasining akkreditatsiyadan o'tishi va davlat litsenziyasi olishi uchun asosiy shartlardan biridir.

Xorijiy tajribani o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda nodavlat OTMlarni tashkil etishda dastlabki moliyaviy poydevorni mustahkam shakllantirish masalasi qat'iy tartibga solingan. Bu esa muassasalarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga va ta'lim sifatini yuqori darajada saqlashga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan mexanizmi amalga oshirishning huquqiy va tashkiliy jihatlari

Ilgari surilayotgan ustav fondi mexanizmini amaliyotga joriy etish uchun qator huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni [3] hamda oliy ta'lim sohasiga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga nodavlat OTMlarning ustav fondi va uning minimal miqdorini belgilashga doir normalarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ustav fondini shakllantirish, undan foydalanish va uning maqsadli sarflanishini nazorat qilish tartibini belgilovchi maxsus nizom ishlab chiqilishi lozim.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida ustav fondi holatini monitoring qiluvchi maxsus bo'linmani tashkil etish;

ustav fondi miqdorini talabalar soniga bog'liq ravishda oshirishning progressiv shkalasini joriy etish, masalan, har 1000 talabaga qo'shimcha 500 ming AQSH dollari ekvivalentida;

ustav fondining majburiy minimal miqdorini saqlash bo'yicha nazorat va javobgarlik mexanizmlarini belgilash.

Bundan tashqari, davlat tomonidan rag'batlantiruvchi mexanizmlarni ham joriy etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, ustav fondini belgilangan miqdordan oshirib bajargan muassasalarga soliq imtiyozlari, davlat granti yoki tenderlarda ustuvorlik berish kabi imtiyozlar taqdim etilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosa va takliflarga kelish mumkin:

Birinchidan, nodavlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi nafaqat muassasaning o'z muvaffaqiyati,

balki umumiy ta'lim tizimining sifati va barqarorligi uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega omil hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri faoliyat boshlanishidan mustahkam moliyaviy poydevorni shakllantirishdir.

Ikkinchidan, muallif tomonidan ilgari surilayotgan nodavlat OTM ustav fondini kamida 2 million AQSH dollari ekvivalentidan kam bo'lmagan miqdorda shakllantirish va uni talabalar soniga mutanosib ravishda oshirib borish mexanizmi hozirgi iqtisodiy-institutsional sharoitda nodavlat ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishi uchun zarur huquqiy-tashkiliy asos hisoblanadi.

Uchinchidan, iqtisodiy hisob-kitoblar natijalari ko'rsatishicha, ustav fondi depozit sifatida joylashtirilganda yillik 120 ming — 150 ming AQSH dollari daromad keltirishi mumkin. Infratuzilmani shakllantirish ssenariysida esa 10 yil mobaynida 11 million AQSH dollarigacha iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin. Bu esa nodavlat OTMlarning uzoq muddatli moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, taklif etilayotgan mexanizm nafaqat OTMlarning ichki moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, balki ularning davlat oldida barqaror muassasalar sifatida tan olinishiga, xalqaro ta'lim bozorida reytinglarda yuqori o'rin egallashiga va pirovardida O'zbekiston oliy ta'limining xalqaro obro'si oshishiga muhim hissa qo'shadi.

Beshinchidan, taklif etilayotgan mexanizmi samarali joriy etish uchun amaldagi huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, monitoring va nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, davlat tomonidan rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar tizimini shakllantirish zarur.

Oltinchidan, taklif etilayotgan ustav fondining 2 mln AQSH dollari ekvivalentidagi minimal chegarasi faqat Toshkent shahri va viloyat markazlari uchun mo'ljallangan bo'lib, boshqa mintaqalar, masalan, Qoraqalpog'iston, viloyatlarning olis tumanlari uchun ushbu talabni bosqichli ravishda joriy etish yoki differensiallashtirilgan mezonlarni belgilash maqsadga muvofiqdir. Jumladan, mintaqalarda yer narxi, qurilish va ijara xarajatlari pastroq bo'lganligi sababli dastlabki ustav fondi 1–1,5 mln AQSH dollari atrofida belgilanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari nodavlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda O'zbekiston oliy ta'lim tizimining xalqaro integratsiyasini yanada chuqurlashtirishga yo'naltirilgan davlat siyosatini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. OECD. *Education at a Glance 2023: OECD Indicators*. — Paris: OECD Publishing, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6518515>
5. Johnstone D.B. *Financing Higher Education: Cost-Sharing in International Perspective*. — Rotterdam: Sense Publishers, 2006.
6. Salmi J. *The Challenge of Establishing World-Class Universities*. — Washington, DC: The World Bank, 2009.
7. Altbach P.G., Salmi J. (eds.). *The Road to Academic Excellence: The Making of World-Class Research Universities*. — Washington, DC: The World Bank, 2011.
8. Abankina I.V., Osovetskaya N.Ya. Ekonomicheskii potentsial vuza kak faktor prinyatiya resheniya o perevode v avtonomnoye uchrezhdeniye // *Voprosy obrazovaniya*. — 2007. — № 1. — S. 199–222.
9. National Association of College and University Business Officers (NACUBO), Commonfund Institute. *2023 NACUBO-Commonfund Study of Endowments*. — Washington, DC: NACUBO, 2024.
10. Yüsekögretim Kurulu. *Üniversite İzleme ve Değerlendirme Genel Raporu 2023*. — Ankara: YÖK, 2023.
11. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimiga oid rasmiy statistik ma'lumotlar va hisobotlar. — Toshkent.
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank depozitlari va kreditlari bo'yicha foiz stavkalari statistikasi. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
13. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2019-yil 30-dekabr. <https://lex.uz/docs/-4674902>

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100